

## MUSTAFO AL-MANFALUTIY VA CHO'L PON HIKOYALARIDA AYOLLAR

## TASVIRINING QIYOSIY TAHLILI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistri

**Baymurodova Zarina Zarifjon qizi**

[zarinabaymurodova@gmail.com](mailto:zarinabaymurodova@gmail.com)

**Kalit soʻzlar:** maʼrifatparvarlik, jadid adabiyoti, axloqiy mavzular, ayollar tasviri, qiyosiy tahlil.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE PORTRAYAL OF WOMEN IN THE WORKS OF  
MUSTAFA AL-MANFALUTI AND CHOLPON

Master's degree holder at Tashkent State University of Oriental Studies

**Baimurodova Zarina Zarifjon kizi**

[zarinabaymurodova@gmail.com](mailto:zarinabaymurodova@gmail.com)

**Keywords:** education, contemporary literature, moral motives, portrayal of women, comparative analysis

Adabiyot yaralibdiki unda ayollar va ayollikka xos boʻlgan tasvirlar aks ettirilmagan boʻlsa. Qaysidir yozuvchi ijodida yoxud qaysidir millat adabiyotida ayol oqilalik, donolik egasi sifatida tasvirlansa, boshqa birida ayol makkora, zolim, yolgʻonchi va xiylakor qilib tasvirlanadi. Mumtoz adabiyotida ayol doim goʻzalligi uchun alqandi, shoirlar oshiqning maʼshuqi taʼrifini koʻp va xoʻb yozdilar, ammo XIX asrga kelib ayollar maʼrifatparvar ijodkorlar tomonidan faqatgina epizodik qahramon emas, balki bosh qahramon darajasiga olib chiqildi. Endi nasrda ayollarning ichki va tashqi olami, kechinmalari, uning haqiqatlari yozila boshlandi. Ana shunday ayollarning taqdirga befarq boʻlmagan, patriarxat tuzumning qurboni oʻlayozgan ayollarni himoya qilib, ularning jamiyatdagi oʻrniga eʼtibor bergan ijodkorlar qadim Sharq adabiyotida ham serob. Shulardan Choʻlpon (1898-1937) - XX asr yangi oʻzbek adabiyoting beqiyos namoyondasi, zamonasining ilgʻor fikrlaydigan insonlaridan boʻlib, oʻzining haq va keskin fikrlari bilan jamoatchilik eʼtiboriga tushgan, qatagʻon davrining eng koʻp aziyat koʻrgan ijodkori boʻlishiga qaramay, koʻplab sheʼrlar, bir qancha pyesa va hikoyalar hamda “Kecha va kunduz” romanini yaratgan. Choʻlpon oʻz asarlarida xalqining taraqqiy topishi, axloqiy illat qurboni boʻlib, boshqa mamlakatlardan ortda qolayotgani, ilm-maʼrifat vositasi bilangina yuksala olishi haqida bot-bot takrorlagan. Bir qancha hikoyalarida ayollar obrazini nihoyatda mohirlik bilan tasvirlagan.

Mustafo al-Manfalutiy (1876-1924) – yangi davr Misr adabiyotida zamonaviy hikoya janrining asoschisi boʻlib, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Misrda yashab ijod qilgan.

Uning hikoyalari fransuz adabiyotidan ilhomlanib, asarlari syujetidan foydalanib, ayrimlarini arabchaga tajima qilib yaratilgan. Uning hikoyalarida faqatgina esselari kabi maʼrifiy-axloqiy

mavzudagi didaktik uslub emas, balki chuqur sentimental, romantizmga ulangan yangicha yo‘nalish bor bo‘lib, islomiy an‘analarga sodiqlik va sharqona jimjimador, bezakdor so‘zlar ham hikoyalarga o‘ziga xoslik baxsh etgan. Uning ijodida ayollarning shar‘iy va insoniy huquqlarini poymol qilmaslik, ayolga faqatgina uy da bekalik qiluvchi yoxud shahvoniy obyekt sifatida qaramaslik, uning ham qalbi va ruhi bor bo‘lib, uni e‘zozlash kerakligi haqida bot-bot takrorlanadi.

Cho‘lpon XX asrning 20-yillarida bosilgan “Qor qo‘ynida lola”, “Oydin kechalarda”, “Novvoy qiz”, “Klio‘patra(Kleopatra)”, “O‘ktabr qizi” , “Nonushta”, “Seni ko‘b ko‘rmasin”kabi hikoyalarda ayollarni bosh qahramon qilib tasvirlaydi. Hikoyalarda ayollarning akasari inqilob asarini totgan, qiynalغان yoxud erkaklar nafsining qurboni bo‘lgan etib tasvirlanadi. Masalan, “Qor qo‘ynida lola” hikoyasida yoshgina, hali endi balog‘atga yetgan, ko‘rkam Sharofatxon inqilobdan keyin bor-budidan ayrilgan otasi uni piri - Eshon hazratlariga nazr qilgani uchun turmushga beriladi. Butun mahalla-ko‘y suqlanib qaraydigan, kimlarga kelin bo‘lishga munosib deb topilgan qiz oppoq soqolli eshonga uchinchi xotin bo‘ladi. Hikoya kelinni “kuyovto‘ra”ning uyiga olib kelishi bilan yakunlanadi, qiz hali umrining bahorida lolamisol ochilgan ko‘yi umrining so‘nggi - qishida yashayotgan eshonga uzatilgani uchun ham asarga shunday sarlavha berilgan bo‘lsa ajab emas.

Cho‘lponning yana bir boshqa “Oydin kechalarda” deb nomlangan hikoyasida ham Zaynab kampir va uning yaqindagina tushirgan kelini bosh qahramonlar bo‘lib, bu hikoyada Zaynab kampir tun yarmida bir juvonning yig‘isini eshitib qoladi va yig‘i egasini topmoq uchun har xil xayolga boradi, lekin bilsa-ki, yig‘layotgan bu juvon o‘zining yangi kelini ekan, kelini kampirga yig‘isining sababi qilib, to‘ydan buyon o‘g‘i ko‘p vaqt uyga yarim tunda sarmast qaytishini ko‘rsatadi. Hikoya esa o‘lgudek mast Qodirjonning “gde moya Anna, gde moya Annushka?” deb kirib kelib, yiqilishi bilan tugaydi. Ushbu hikoyada ham hali to‘yiga bir yarim oy bo‘lgan kelin, erkakning badnafi tufayli yosh umri xazon o‘tishidan qo‘rqib ko‘zyoshi qiladi. Cho‘lpon mazkur hikoyalarda taqdiri oldida chorasiz qolgan ayollarning qismatini tasvirlar ekan, ularning soddaligi, o‘z taqdirini o‘z hal qila olmasligi va ular erkaklarning qo‘lidagi bir o‘yinchoqqa aylangani ko‘rsatadi.

Al-Manfalutiy ham ma‘rifatparvarlik davrining muhim va dolzarb mavzulari bo‘lmish ayollar va erkaklar o‘rtasidagi aloqalarga bag‘ishlangan bir qancha esselar, matbuotda bosilgan ushbu mavzudagi hikoyalarga o‘zining munosabatini ocherk shaklida ham chop qildirib borgan, keyinchalik ayollar uning o‘z hikoyalarda ham bosh qahramonga aylanadi. Yozuvchi ham Cho‘lpon singari ayollarning jamiyat qurbonlari o‘laroq hayot kechirishini, erkaklar unga egalik qilmasligi, balki u ham erkak singari Alloh tomonidan yaratilgan teng inson ekanini yozadi. Al-Manfalutiyning “Ikki shahid” nomli hikoyasida jamiyatda ayollarning o‘rni, ularga nisbatan erkaklar tomonidan o‘tkazilgan zulmlar, shuningdek ayollarning zaifligi ko‘rsatiladi. Ushbu hikoyada ham hayotning qiyinchiligidan, yo‘qchilikdan aziyat chekkan ayol va qizining bevaqt hayotdan ko‘z yumishi tasvirlanadi. Yozuvchi o‘z zamondoshlari orasida “bechoralar shoiri” degan laqabni olgan, buning sababi uning asarlari hayotda zulm ko‘rgan, qiyinchilik chekkan, jamiyatning eng qiynalغان vakillari bo‘lib, u o‘z asarlari vositasida bechoralarga taskin berishni istagan. Xossatan, ushbu ikki shahid hikoyasida ham yozuvchi erkaklarning taloq qilichidan har kuni o‘layotgan ayollar haqida yozadi, jamiyatda ogohlikka chaqiradi.

Xulosa qilib shuni ta‘kidlash mumkinki, ma‘rifatparvarlik davri ayol kishini shaxs sifatida ko‘rishga, uning haq-huqularini asrashga chaqiradi, zero, ayollar buyuk millatlarning tarbiyachilaridir, agar ayol aqlli, yetuk bo‘lsa, uning farzandlari ham yetuk bo‘ladi, millat taraqqiy qiladi, jamiyat isloh bo‘ladi.